



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3853
2026 - yil 09 - Iyun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRI BUYRUG'I

**Pedagogika sohasidagi talabalarning bilimlarini tashqi
diagnostikadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash
haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son
"Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari
to'g'risida"gi [Farmoniga](#) muvofiq **buyuraman:**

1. Pedagogika sohasidagi talabalarning bilimlarini tashqi diagnostikadan
o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi hamda O'zbekiston
Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach
kuchga kiradi.

Vazir
18-May 2026-yil
35-mh-son son



KARIMOVA E'ZOZXON
GAPIRJONOVNA

Kelishildi:

Vazir
12-May 2026-yil



SHARIPOV KONGRATBAY
AVEZIMBETOVICH

Direktor
07-May 2026-yil



YULDASHEV BAXTIYOR
GAYRADJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi
maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil 18-maydagi 35-mh-son buyrug'iga
ILOVA

**Pedagogika sohasidagi talabalarning bilimlarini tashqi
diagnostikadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida talabalarning bilimlarini tashqi diagnostikadan o'tkazish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga (bundan buyon matnda oliy ta'lim tashkiloti deb yuritiladi) tatbiq etiladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

pedagogika ta'lim yo'nalishi – mazkur Nizomning 1-ilovasidagi Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish amalga oshiriladigan pedagogika ta'lim yo'nalishlari ro'yxatida belgilangan oliy ta'lim yo'nalishlari;

pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish – oliy ta'lim tashkilotida bakalavriat bosqichining pedagogika ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning bilimlarini yagona metodologik yondashuv asosida tashqi diagnostikadan o'tkazish orqali tahlil qilish;

tashqi diagnostika – oliy ta'lim tashkilotida bakalavriat bosqichining pedagogika ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning bilimlarini mazkur yo'nalishlardagi ta'lim dasturlari mazmuniga muvofiq tuzilgan test sinovlari asosida baholash.

2. Tashqi diagnostikadan o'tkazish mazkur Nizomning 1-ilovasidagi Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish amalga oshiriladigan pedagogika ta'lim yo'nalishlari ro'yxatida belgilangan pedagogika ta'lim yo'nalishlari (bundan buyon matnda pedagogika ta'lim yo'nalishlari deb yuritiladi) bo'yicha har o'quv yilida bir marta bahorgi semestrda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Tashqi diagnostikaga pedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim tashkilotining bakalavriat bosqichida bir akademik guruhda tahsil olayotgan

uchinchi bosqich talabalari jalb etiladi.

4. Pedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha akkreditatsiyadan o'tganiga bir yil to'lmagan oliy ta'lim tashkilotlari tashqi diagnostikaga jalb qilinmaydi.

2-bob. Tashqi diagnostikani tashkil etish

5. Tashqi diagnostikadan o'tkazish uchun har o'quv yilining sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i bilan quyidagi tarkibda kamida 5 nafar malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruh tuziladi:

ishchi guruh raisi – O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining pedagogik ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori;

ishchi guruh raisi o'rinbosari – Vazirlikning Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i;

ishchi guruh a'zolari – pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni kasbiy rivojlantirish bo'yicha malakali mutaxassislar;

ishchi guruh kotibi – pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni kasbiy rivojlantirish bo'yicha mutaxassis.

6. Ishchi guruh:

tashqi diagnostikadan o'tkazish jarayonini muvofiqlashtiradi;

tashqi diagnostikaga jalb etiladigan akademik guruhlarni tanlaydi;

tashqi diagnostika natijalariga muvofiq har bir pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma tayyorlaydi;

test sinovlari natijalaridan norozi bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarining murojaatlarini ko'rib chiqadi.

7. Tashqi diagnostika mazkur Nizomning 2-ilovasidagi sxemaga muvofiq o'tkaziladi.

8. Vazirlik tomonidan har o'quv yilining sentabr oyida oliy ta'lim tashkilotidagi pedagogika ta'lim yo'nalishlari talabalari sonidan (talabalar soninig ko'pligiga ustuvorlik beriladi) kelib chiqib, tashqi diagnostikadan o'tkaziladigan oliy ta'lim tashkilotlarining pedagogika ta'lim yo'nalishlari ro'yxati Vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va tashqi diagnostikadan o'tkaziladigan oliy ta'lim tashkilotlariga yuboriladi.

9. Tashqi diagnostikadan o'tkaziladigan oliy ta'lim tashkilotlari har o'quv yilining noyabr oyi yakuniga qadar pedagogika ta'lim yo'nalishlari va unda tahsil

olayotgan talabalar soni bo'yicha ma'lumotlarni hamda taklif va e'tirozlarini Vazirlikka taqdim etadi.

10. Vazirlik tomonidan har o'quv yilining dekabr oyida mazkur Nizomning 9-bandidagi ma'lumotlar asosida tashqi diagnostika o'tkaziladigan oliy ta'lim tashkilotlarining pedagogika ta'lim yo'nalishlari ro'yxati qayta ko'rib chiqiladi va tashqi diagnostikadan o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan holda tasdiqlanadi hamda bu haqda oliy ta'lim tashkilotlariga uch ish kuni ichida xabarnoma yuboriladi.

3-bob. Talabalar bilimni tashqi diagnostikadan o'tkazish

11. Tashqi diagnostika test sinovlari shaklida Vazirlikning Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazining (bundan buyon matnda Markaz deb yuritiladi) mas'ul xodimlari tomonidan oliy ta'lim tashkilotida o'tkaziladi.

12. Markaz tomonidan har o'quv yilining fevral oyida pedagogika ta'lim yo'nalishlarining ta'lim dasturlari mazmunidan kelib chiqib testlar bazasi shakllantiriladi.

13. Test sinovlari talaba tahsil oladigan tilda, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkaziladi.

Bunda talabalarga 50 ta test topshirig'i va ularni bajarish uchun 45 daqiqa vaqt beriladi.

Har bir to'g'ri bajarilgan test topshirig'i 2 ball bilan baholanib, test sinovlari uchun jami 100 ball beriladi.

14. Markaz test jarayonining xolisona va adolatli o'tishini ta'minlash, talabalarga ularning test sinovlari jarayonidagi vazifalari, huquq va majburiyatlarini tushuntirish, test sinovlarini o'tkazish bilan bog'liq barcha zarur sharoitlarni yaratish hamda test sinovlari natijalari bo'yicha to'liq ma'lumotlar berish uchun mas'ul hisoblanadi.

Markaz test materiallarining sifatli, nuqsonsiz hamda maxfiylikni saqlagan holda tayyorlanishini ta'minlaydi.

15. Test sinovlarini o'tkazish jarayoni foto va videotasvirga olinadi.

16. Test sinovlari boshlangandan keyin Markazning mas'ul xodimlaridan boshqa shaxslar test sinovlari o'tkaziladigan xonaga kiritilmaydi va test savollari bo'yicha talabalar bilan savol-javob qilinmaydi.

17. Test sinovlari o'tkazilayotganda talabalar, Markazning mas'ul xodimlari va boshqa shaxslar tomonidan uyali telefonlar hamda boshqa aloqa va texnika

vositalarini test sinovlari o'tkaziladigan xonaga olib kirilishi va ulardan foydalanilishi taqiqlanadi.

18. Test sinovlari mazkur Nizomning 3-ilovasidagi Test sinovlari natijalarini baholash mezonlariga muvofiq baholanadi.

19. Test sinovlari natijalari talabaning o'qish davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'sir qilmaydi va ularning reyting ballini jamlashda hisobga olinmaydi.

20. Talabalar test sinovlariga jalb qilinganda ularning dars jadvallariga oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritilishi lozim.

21. Oliy ta'lim tashkiloti tashqi diagnostikaga talabalarning to'liq jalb etilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Test sinovlariga jalb qilingan talaba uzrli sabablarga ko'ra (salomatligi sababli belgilangan shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilganda, homiladorlik, tug'ish hamda bola parvarishi qilish ta'tili, yaqin qarindoshining vafot etganligi va boshqalar sababli) qatnasha olmagan hollarda oliy ta'lim tashkiloti Vazirlikni yozma xabardor qilishi hamda asoslovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

22. Markaz tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari va pedagogika ta'lim yo'nalishlari kesimidagi test sinovlari natijalari test sinovlari o'tkazilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ishchi guruhga taqdim etiladi.

23. Ishchi guruh tomonidan test sinovlari natijalari asosida tashqi diagnostika natijalari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$T_D = \frac{1T_{TB} + 2T_{TB+} + nT_{TB-}}{T_S}$$

Bunda:

T_D – tashqi diagnostika natijasi;

$1T_{TB} + 2T_{TB+} + nT_{TB-}$ har bir talabaning test ballari yig'indisi;

T_S – test sinovida ishtirok etgan talabalar soni.

24. Ishchi guruh tomonidan tashqi diagnostikadan o'tkazish natijalari asosida o'n besh ish kuni ichida tahliliy ma'lumotnoma tayyorlanadi hamda Vazirlikka taqdim etiladi.

25. Vazirlik tomonidan tashqi diagnostikadan o'tkazish natijasida 56 ball va undan yuqori ko'rsatkich qayd etilgan pedagogika ta'lim yo'nalishi "talablarga javob beradigan", 56 baldan past ko'rsatkich qayd etilgan pedagogika ta'lim yo'nalishi "talablarga javob bermaydigan" deb topiladi.

26. Ishchi guruh tomonidan tayyorlangan tahliliy ma'lumotnoma Vazirlik tomonidan umumlashtirilib, uch ish kuni ichida oliy ta'lim tashkilotiga yuboriladi.

27. Vazirlik tomonidan tashqi diagnostikadan o'tkazish natijalariga ko'ra "talablarga javob bermaydigan" deb topilgan pedagogika ta'lim yo'nalishi ro'yxati shakllantiriladi hamda tashqi diagnostikadan o'tkazish yakunlangandan so'ng bir oy ichida ta'lim tashkilotini xavfni tahlil qilish asosida navbatdan tashqari [o'rganish uchun](#) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga taqdim etiladi.

4-bob. Tashqi diagnostika natijalari yuzasidan murojaat qilish

28. Test sinovlari natijalaridan norozi bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari tashqi diagnostika natijalari yuborilgan kundan boshlab o'n kun mobaynida ishchi guruhga yozma ravishda murojaat qilishlari mumkin.

29. Ishchi guruh muammoli holatlarga aniqlik kiritish uchun jamoatchilik asosida malakali mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

30. Ishchi guruh yig'ilishlarida a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etsa, uning qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo'ladi.

31. Murojaat ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun muddatda, qo'shimcha o'rganishlar talab etilganda qo'shimcha besh kun muddatda ko'rib chiqiladi.

Murojaatning ko'rib chiqish kuni haqida murojaat etuvchi oliy ta'lim tashkiloti bir kun oldin xabardor qilinadi va oliy ta'lim tashkilotining mas'ul xodimi murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha yig'ilishda ishtirok etishi mumkin.

32. Ishchi guruh oliy ta'lim tashkilotining murojaatini ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

test topshiriqlarining to'g'ri tuzilganligi hamda baholanganligi, test sinovi materiallarida xato va kamchiliklar, shuningdek, test sinovlarini o'tkazish jarayonida tashkiliy-texnik jihatdan kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, test sinovlari natijalarini o'zgartirishsiz qoldirish;

test topshiriqlarining to'g'ri tuzilganligi hamda baholanganligi, test sinovi materiallarida xato va kamchiliklar, shuningdek, test sinovlarini o'tkazish jarayonida tashkiliy-texnik jihatdan kamchiliklar mavjudligi aniqlangan taqdirda, test sinovlarini qayta o'tkazish.

33. Murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhning xulosasi ko'rib chiqish yakunlangan kunda murojaat etuvchi oliy ta'lim tashkilotiga yuboriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

34. Manfaatdor shaxslar tashqi diagnostika o'tkazishdan norozi bo'lgan taqdirda, sudga yoki vakolatli organlarga qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga ega.

35. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida
talabalarning bilimlarini tashqi diagnostikadan o'tkazish tartibi
to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

**Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish amalga
oshiriladigan pedagogika ta'lim yo'nalishlari
RO'YXATI**

T/r	Bilim va ta'lim sohalari, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar nomi		Bitiruvchiga beriladigan kvalifikatsiya
	Kod	Yo'nalish nomi	
1.	60110100	Pedagogika	Tarbiya fani o'qituvchisi
2.	60110200	Maktabgacha ta'lim	Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi va uslubchisi
3.	60110300	Maxsus pedagogika	O'qituvchi-logoped
			O'qituvchi-surdopedagog
			O'qituvchi-oligofrenopedagog
4.	60110400	Boshlang'ich ta'lim	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
5.	60110500	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi	Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi
6.	60110600	Musiqqa ta'limi	Musiqqa madaniyati fani o'qituvchisi
7.	60110700	O'zbek tili va adabiyoti	O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
8.	60110800	Ona tili va adabiyoti	Qirg'iz tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Qozoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Tojik tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Turkman tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

9.	60110900	Xorijiy til va adabiyoti	Fransuz tili fani o'qituvchisi
			Ingliz tili fani o'qituvchisi
			Koreys tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Nemis tili fani o'qituvchisi
10.	60111000	Chaqiriqqacha harbiy ta'lim	Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi
11.	60111100	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi	Tarbiya va huquq fani o'qituvchisi
12.	60111200	Jismoniy madaniyat	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
13.	60111300	Texnologik ta'lim	Texnologiya fani o'qituvchisi
14.	60220300	Tarix	Tarix fani o'qituvchisi
15.	60230100	Filologiya va tillarni o'qitish	Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Sharq va g'arb tillari fani o'qituvchisi
			Tojik tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Qozoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			Turkman tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
16.	60510100	Biologiya	Biologiya fani o'qituvchisi
17.	60530100	Kimyo	Kimyo fani o'qituvchisi
18.	60530200	Geografiya	Geografiya fani o'qituvchisi
19.	60530500	Fizika	Fizik-o'qituvchi
			Fizika va astronomiya o'qituvchisi
20.	60530700	Astronomiya	Astronom-o'qituvchi
21.	60540100	Matematika	Matematika fani o'qituvchisi
22.	60540200	Amaliy matematika	Matematika va informatika fani o'qituvchisi
23.	61010200	Sport faoliyati	Jismoniy tarbiya o'qituvchisi

24.	61010300	Adaptiv jismoniy tarbiya va sport	Jismoniy tarbiya o'qituvchisi
-----	----------	-----------------------------------	-------------------------------

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida
talabalarning bilimlarini tashqi diagnostikadan o'tkazish tartibi
to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

**Tashqi diagnostikani tashkil etish
SXEMASI**

Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
Vazirlik	1. Ishchi guruh tarkibini tasdiqlaydi. 2. Tashqi diagnostikadan o'tkaziladigan oliy ta'lim tashkilotlarining pedagogika ta'lim yo'nalishlari ro'yxatini rasmiy veb-saytida e'lon qiladi va oliy ta'lim tashkilotiga yuboradi.	Har o'quv yilining sentabr oyida
Oliy ta'lim tashkilotlari	Pedagogika ta'lim yo'nalishlari va unda tahsil olayotgan talabalar soni bo'yicha ma'lumotlarni Vazirlikka taqdim etadi.	Har o'quv yilining noyabr oyi yakuniga qadar
Vazirlik	1. Tashqi diagnostika o'tkaziladigan oliy ta'lim tashkilotlarining pedagogika ta'lim yo'nalishlari ro'yxati qayta ko'rib chiqiladi va tashqi diagnostikadan o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan holda tasdiqlanadi. 2. Tashqi diagnostikadan o'tkaziladigan oliy ta'lim tashkilotlariga xabarnoma yuboriladi.	Har o'quv yilining dekabr oyida Uch ish kuni ichida
Markaz	1. Testlar bazasini shakllantiradi. 2. Test sinovlarini o'tkazadi. 3. Test sinovlari natijalarini ishchi guruhga taqdim etadi.	Har o'quv yilining fevral oyida Vazirlik tomonidan belgilangan muddatda

		uch ish kuni ichida
Oliy ta'lim tashkilotlari	Talabalarni test jarayonida to'liq ishtirokini ta'minlaydi.	Belgilangan muddatda
Ishchi guruh	<ol style="list-style-type: none">1. Test sinovlari natijalari asosida tashqi diagnostika natijalarini aniqlaydi.2. Tahliliy ma'lumotnoma tayyorlanadi hamda Vazirlikka taqdim etiladi.	o'n besh ish kuni ichida
Vazirlik	Ishchi guruh tomonidan tayyorlangan tahliliy ma'lumotnomani umumlashtirib oliy ta'lim tashkilotiga yuboradi.	uch ish kuni ichida
Ishchi guruh	Tashqi diagnostikadan o'tkazish natijalari yuzasidan murojaatlarni ko'rib chiqadi.	o'n kun ichida
Vazirlik	Tashqi diagnostikadan o'tkazish natijalariga ko'ra "belgilangan talablarga javob bermaydigan" deb topilgan pedagogika ta'lim yo'nalishi ro'yxati shakllantiradi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga taqdim etadi.	Tashqi diagnostikadan o'tkazish yakunlangandan so'ng bir oy ichida

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida
talabalarning bilimlarini tashqi diagnostikadan o'tkazish tartibi
to'g'risidagi nizamga
3-ILOVA

**Test sinovlari natijalarini
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Ko'rsatkichlar	Maksimal ball
1	Talabanning fan va uni o'qitish metodikasi bo'yicha kompetensiyasi	40
2	Talabanning pedagogik va psixologik kompetensiyasi	20
3	Talabanning sinfni boshqarish kompetensiyasi	15
4	Talabanning o'quvchilarning bilimlarini baholash kompetensiyasi	25
	Jami:	100